

## MINTAQADA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MILASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINI RIVOJLANTIRISH.

**Xurramov Ulmasjon Nizomiddin O'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada, mintaqada barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'milashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish haqida so'z yurutiladi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti, kichik biznes, xususiy lashtirish, davlat imtiyozlari, xususiy mulkdorlar huquqlari, YaIM ko'rsatkichi, tadbirkorlik subyektlari, tadbirkorlik subyektlari huquqlari.

**Annotation:** this article talks about the development of small business and private entrepreneurship in the region's sustainable economic development.

**Keywords:** Economy of new Uzbekistan, small business, privatization, state benefits, rights of private owners, GDP index, business entities, rights of business entities.

**Аннотация:** в данной статье говорится о развитии малого бизнеса и частного предпринимательства в условиях устойчивого экономического развития региона.

**Ключевые слова:** Экономика нового Узбекистана, малый бизнес, приватизация, государство привилегии, права частных собственников, показатель ВВП, хозяйствующие субъекты, права хозяйствующих субъектов.

"Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta'minlashdir. Biznes bilan shug'ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo'lishi shart. Odamlar biznes bilan shug'ullanishdan manfaatdor bo'lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo'lsa – mamlakat ham boy bo'ladi!."

***O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M.***

Mamlakatimiz hududida qulay tadbirkorlik muhitini yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjalalarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va ruxsat beruvchi normalarini qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, kichik biznes subyektlarining moliya-kredit va xom-ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni

ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tadbirkorlik etish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish chora-tadbirlari sifatida amalga oshirib kelinmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, yo'lga qo'yilgan islohotlardan asosiy maqsad respublika aholisini tadbirkorlik sohasiga keng ko'lamda jalb etishni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida xususiy biznesning ro'lini sifat jihatidan oshirishdir. Kichik biznes va tadbirkoprlikni rivojlantirishning asosiy sabablaridan biri aholi sonini muttasil ravishda o'sib borishidir. Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinalarini yaratish va shu bilan birqalikda aholi daromadlarini oshirishning muhim omili va mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlanuvchi kuch hisoblanadi.

Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor konyunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o'rinalarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va makbul vositaga aylantirmoqda.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida jamg'arma tomonidan kafillik va kompensatsiya shaklida moliyaviy yordamlar berib kelinmoqda. Birgina o'tgan yil davomida 20 258 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklaridan olingan 33,208 mlrd. so'mlik kreditlari bo'yicha jamg'arma tomonidan 6,993 mlrd. so'm miqdordagi moliyaviy majburiyatlar olingan. O'z navbatida, tahlillar natijasi shuni ko'rsatadi, 2020-yilda:

- tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha 5356 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga jamg'armaning 4,172 mlrd. so'm miqdordagi kafillik majburiyatlar olingan, natijada jamg'armaning kafilligidan foydalanuvchi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari soni 2019-yilga nisbatan 4,2 barobarga oshgan;

- tijorat banklari kreditlari bo'yicha foiz xarajatlari qoplash uchun jamg'armaning kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordamidan foydalangan kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari soni esa 14 902 ta yetgan va jamg'arma 2,821 mlrd. so'm miqdorda foiz xarajatlari qoplash yuzasidan majburiyatlar olgan, natijada 2019-yilga nisbatan kompensatsiya oluvchilar soni 4,4 barobar hamda to'lab beriladigan foiz xarajatlari miqdori 3,3 barobarga oshgan.

Mamlakatimizda xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlardan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlab beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Mamlakatimizda 525 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat ko'rsatmoqda. Yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini shakllantirayotgani, mehnatga layoqatli aholining 78 foizdan ziyodini ish bilan ta'minlayotgani kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy

taraqqiyotidagi o'rni va ro'li tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, jumladan, biznes sohasi vakillari va davlat organlari o'rtasida samarali muloqot va foydali hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, viloyatlar va tumanlarda biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga, avvalo, viloyatlar, shahar va tumanlarda sifatl davlat xizmatlari taqdim etilishini ta'minlash davlat organlari va tadbirkorlik tuzilmalarining o'zaro hamkorligini, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini endi boshlagan davrlarda ularni qo'llab-quvvatlashning yangi samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotnomasiga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 467 096 tani tashkil etib, 2017-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2,2 barobarga oshgan. Yillar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar soni esa respublikamizda yanvar oyida (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2017- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1,7 barobarga oshgan. Respublikamizda tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni bo'yicha 3-o'rinni oilaviy korxonalar egallagan bo'lib, ular 2021-yil 1-avgust holatiga ko'ra jami tadbirkorlik subyektlarining 10,9 foiz ulushini tashkil etgan.

Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama imoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-adbirlar to'g'risidagi farmonni prezident Shavkat Mirziyoyev imzoladi. Unga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni himoya qilish va uning axlsizligi kafolatlarini mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirishda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash ko'zda tutilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga davlat organlarining aralashuvini tubdan qisqartish, huquqbazarliklarning oldini olishni ta'minlash, huquqbazarliklarga yo'l qo'yimaslik tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanish sohasida davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishi va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilansin, deyiladi hujjatda. Shuningdek, farmonda aytishicha, 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab, tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi. Nazorat qiluvchi organlar bundan keyin rejadan tashqari tekshirishlar o'tkazishni tashkil qilish huquqiga ega emasligi qayd etilganligi respublika hududida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonining keskin oshishiga turtki bo'ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovatsion texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o'sish sur`atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzARB hisoblangan aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o'rin tutmokda.

Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta'minlash orqali mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo`lgan o'rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo'lib borishiga erishilmoqtsa. Shunday ekan, endilikda kichik biznesni nafaqat son jihatdan ko'paytirish, balki uni avvalo sifat jihatdan ham rivojlantirishimiz, bu borada oddiy ishlab chiqarishdan ichki va tashqi bozorga yo'naltirilgan murakkab, yuksak texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tish masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz darkor.

Yurtimizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanish yo'llarini ishlab hiqish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaroy foydali aloqalarni mustahkamlashga bo'lgan e'tibor yildan-yilga oshib bormoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihibar amalga oshirilmoqtsa. Kichik biznes subyektlarida yangi texnika va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga yuqori tavakkalchiliklarsiz joriy etish, yangi ishlab chiqarish kuvvatlarini barpo etib, undan samarali foydalanish jarayoni yirik korxonalarga nisbatan tezroq ro'yobga chiqadi. Hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdosoti, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va raqobat muhiti kuchayib borishi, mahsulotlar hayotiylik davri keskin qisqarishi, bozor konyunkturasi va iste'molchilar ehtiyojlari tez o'zgarishi jarayonlari bugungi kunda har bir xo'jalik yurituvchi subyektdan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni hayotiy zaruratga aylantirmoqda. Bu esa ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarishni talab etmoqda.

Shu jihatdan, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovatsion va nanotexnologiyalar, farmakologiya va farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar qilib aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga

asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish o`zining ijobiy samarasini beradi.

Kichik biznes subyektlaryushng innovatsion faoliyati, eng avvalo, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish, ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarini pasaytirishda ularning iste'mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi. Kichik biznes subektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishdan maqsad butun ishlab chiqarish tizimini yangilash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ilmiy-texnik, intellektual va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish asosida soha raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Fikrimizcha, O`zbekistonda ilg`or ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish quyidagi omillar hisobiga muhim zarurat hisoblanadi:

birinchidan, kichik biznesning bozor konyunkturasi o`zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olish xususiyatlariga ega ekanligi innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yirik korxonalarga nisbatan yuqori tavakkalchilikning pastligi jihatidan yaxshi samara beradi;

ikkinchidan, kichik biznes subyektlari faoliyatiga innovatsion texnologiyalar joriy etilishi ularning yuqori transaktsion xarajatlarini kamaytirib, rentabellik ko`rsatkichlarini oshiradi;

uchinchidan, kichik biznes subyektlarining yangiliklarni tezkorlik bilan o`zlashtira olish salohiyati ularga innovatsiyalarni tijoratlashtirishdan yuqori daromad olish imkoniyatini beradi;

to`rtinchidan, kichik biznes subyektlari faoliyatiga boshqaruvning innovatsion texnologiyalari joriy etilishi ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish, tovar va xizmatlar nomenklaturasini oshirish, yangi tovarlar turlarining sotish hajmlarini kengaytirish hamda mahsulot sotishning istiqbolli bozorlarini o`zlashtirish hisobiga ularning eksport salohiyati va raqobatbardoshligini oshiradi.

Mamlakatimizda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish uchun ilmiy, me`yoriy-xuquqiy asoslar mavjud va kadrlar saloxdati ancha yuqori darajada. Biroq, mazkur salohiyatdan samarali foydalanish ko`rsatkichi talab darajasida emas. Faoliyat ko`rsatayotgan 222 ta ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik muassasalarining 8,5 foizigina innovatsiya faoliyati bilan shug`ullanadi.

Respublikamizda innovatsiya muhitining bugungi ahvoli qisqa muddatlarda kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishning yuqori darajasiga erishish imkonini bermaydi. Shu bois, uni rivojlantirish davlat tomonidan mazkur yo`nalishdagi aniq chora-tadbirlarni belgilashni taqozo etadi. Bu borada asosiy e`tibor avvalambor,

quyidagilarga qaratilishi lozim: kichik biznesning ilmiy-texnikaviy axborotdan foydalanish, innovatsion loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etishdagi yuqori transaktsion xarajatlarini kamaytirish; kichik korxonalar uchun yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va ularni jalb etishdagi yuqori tavakkalchiliklarni bartaraf etish; innovatsion ishlanmalar va ularni joriy etish uchun o'z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsiya institutlari bozori tashkil etilishini rag'batlantirish; yirik korxonalarning kichik biznes subyektlari innovatsion loyihalarini hissador tashkilot sifatida ulushli moliyalashtirishdan oladigan manfaatdorligini oshirish; fan-ta'lim-ishlab chiqarish intefatsiyasi samaradorligini oshirish va ularni o'zaro bog'laydigan innovatsion vositachilar tarmog'ini rivojlantirish va kichik biznes subyektlari mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqish va xalqaro bozorlar standartlariga moslashtirish orqali ularni tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonlariga keng jalb etish, zamonaviy axborot texnologiyalari yutuklaridan foydalanilgan holda kichik biznesni ma'lumotlar bilan ta'minlash sifatini oshirish hamda innovatsion marketing tadqiqotlarini olib borish kabi uslubiy yordamlar ko'rsatishda kichik biznes innovatsion faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi infratuzilmalar faoliyatini tubdan isloh qilish lozim.

Xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar kichik biznes subyektlarining o'sib borayotgan talab va ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali ularning innovatsion faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantarishda yetakchi kuchga aylanishi zarur.

Innovatsion iqtisodiy rivojlanish yo'liga o'tishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ro'lini oshirish quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ishlab chiqarishda innovatsiya va nanotexnologiyalarni qo'llash;
- muqobil energiya turlaridan foydalanish, ayniqsa, quyosh energiyasidan foydalanish;
- farmakologiya va farmatsevtika sohasi salohiyatidan foydalanish;
- ishlab chiqarishda biotexnologiyalarni qo'llash;
- kam suv talab qiladigan texnologayalarni ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish;
- qishloq xo'jaligi ekinlari yangi serhosil navlarini, mahsuldor chorva mollari turlarini yaratish;
- sanoat va maishiy chiqindilarni qayta ishslash va h.k.

Agar biz zamonaviy, ilg'or va tejamkor texnologiyalardan foydalanishga hamda tovarlarning yuqori sifati va iste'mol xususiyatlarini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion texnika va texnologiyalarni yaratish tizimini joriy etsak, bu sohaga yoshlarni jalb qilgan holda aholimizning ichki ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga eksportga xizmat qiladigan raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada kuchaytirishga erishishimiz mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini innovatsion asosda rivojlantirishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

birinchidan, sanoat korxonalarini xodimlarini rag‘batlantirib ularni ko‘proq marketing tadqiqotlarini olib borishga jalb qilish orqali yanga innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirish;

ikknnchidan, sanoat korxonalarida ishlayotgan yosh xodimlar tomonidan yaratilayotgan innovatsion loyihalarni amaliyatda qo‘llashdan oldin korxona hududiga tegishli joylarda sinov maydonchalarini tashkil etishni yo‘lga qo‘yish;

uchinchidan, kichik biznes vakillari va xususiy tadbirkorlar uchun kreditlar va uchun zarur resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytarish va yaratilayotgan innovatsion loyihalarni kreditlash tizimini yaratish;

to‘rtinchidan, viloyatlarning chekka tumanlarida ishlab chiqarishda eng muhim omil bo‘lgan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va shu kabi communal xizmatlar uzluksizligini ta’minalash bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etash;

beshinchidan, yaratilgan innovatsion mahsulotlar va minisexlar savdo yarmarkalarini tashkil etish;

oltinchidan, kichik biznesning eksport salohiyatini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy, xuquqiy, moliyaviy mexanizmlarini shakllantirish va sharoitlarni yanada yaxshilash orqali kelgusida chetga xomashyo emas, balki yuqori qo‘srimcha qiymatga ega tayyor mahsulotni eksport qilishga erishish.

O‘zbekistonda Innovatsiya faoliyatini yuqori darajada rivojlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun Milliy innovatsion tizim (MIT)ni to‘liq shakllantirish lozim. Bunda respublikamizda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish konsepsiyasini va MITni shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining innovatsiya faoliyatini samarali rivojlantirishga qaratilgan “Innovatsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunini ishlab chiqish va qabul qilish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda kichik biznes subyektlari o‘z faoliyatlarida doimo yangi innovatsiyalarni qo‘llamay, yirik korxonalar bilan hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘ymay bozorga yangi mahsulot yoki texnologiyalarni kiritishlari mushkuldir. Bunda kichik biznes korxonasing boshqaruv faoliyatiga innovatsion menejment usul va texnologiyalarini tadbiq etish, amaldagi boshqaruv usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borish kichik biznes subyektining kelgusidagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Kichik biznes va tadbirkorlik jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mavjud muammolarni hal qilishda va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida katta ro‘l o‘ynaydi. U ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratib, aholini ish bilan ta’minalash va ishsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot

ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim. Shunday ekan, mamlakat hayotidagi dolzarb va ustuvor vazifalarni bajarayotgan soha sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, yaratilgan keng imkoniyatlardan atroflicha foydalana bilish, mamlakat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shish jamiyatda mavjud bo'lgan barcha iqtisodiy faol aholining, qolaversa barchamizning oldimizda turgan asosiy vazifa bo'lib qolaveradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelejagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz O'zbekiston NMIU 2017 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manffatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi .Tosh kent”O'zbekiston 2017 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishslash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori. Toshkent shahri. 2017 yil, 18 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. Toshkent shahri, 2016-yil 24-noyabr.
5. Usarova F.X., Xayitboyev Sh.X. —Kim edigu kim bo'ldik! O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlari asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy qo'llanma. –T: Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti, 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining navbatdan tashqari qurultoyi. 2017- yil 20-iyun.
7. Boltabaev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J., G'oyipnazarov 1.K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirkorlik. - T.: AV1V MAZNK1UOT1, 2011 y.
8. G'oyibnazarov B.K., Rahmonov H.O., Otajonov SH.I., Almatova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tnraqqiyotini yuksaltirish omili.-T.:Fan,2011 y.
9. Xodiev B.YU., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. -T.: TDIU, 2010 y.
10. Malny biznes. Organizatsiya, ekonomika, upravlenie: Uchebnoe iособие dlya vuzov / Pod red. Prof. V.YA. Gorofinklya, prof. V.YA. Gorfinkelya, N.L. SHvandara.-2eizd., prereb. Idop.-M.:YUNITI-DANA,2008.
11. Predprinimatel'stvo: Uchebnik /Pod. red. M.G. Lapusti. - 4-e i (datel'stvo, dop. - M.: INFRA-M, 2008